

O'QUVCHILARDA "TARBIYA FANLAR"NI O'QITISH JARAYONIDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH

Sharopova O'g'iljon Abduhalilovna

NamDPI magistranti

Email address: sharopovaoqiljon@gmail.com

*Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish
natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi.
(Ibn Sino)*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada o'quvchilarda "Tarbiya fanlar"ni o'qitish jarayonida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning mazmuni, ahamiyati va metodologik asoslari keng yoritilgan. Globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda yoshlarning fikrlash madaniyati, ijtimoiy ongini shakllantirishda tarbiyaning tutgan o'rni tahlil etiladi. Maqola davomida tarbiyaning ijtimoiy muhit, oila, maktab va jamiyat bilan uzviy bog'liqligi, yosh avlodni yaxshilikka choralash, mas'uliyat, axloqiy fazilatlarni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot yoshlar ongiga ilmga chanqoqlik, ma'naviy yuksalish, refleksiya, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatlarni singdirishda tarbiya va ilm uyg'unligining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *ilmiy dunyoqarash, tarbiya jarayoni, ma'naviy kamolot, pedagogik yondashuv, tarbiyaning metodologik asoslari, axloqiy fazilatlar, mustaqil fikrlash, ma'naviy poydevor, yoshlar tarbiyasi*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish masalasi ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Chunki insonning fikrlash madaniyati, voqea-hodisalarni tahlil qilish qobiliyati, ijtimoiy hayotdagi o'z o'rnini anglash jarayoni, avvalo, uning dunyoqarashiga bevosita bog'liqdir. Shaxsning ilmiy dunyoqarashi esa tasodifan shakllanmaydi, balki uzluksiz o'qitish-tarbiya jarayonida izchil ravishda rivojlanib boradi. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilarga "Tarbiya fanlari"ni o'qitish jarayonida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.


Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Eng katta boylik – aql zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir" [1;24] degan so'zlari bugungi islohotlar mohiyatini yorqin aks ettiruvchi chuqur ma'noga ega. Bu fikr, avvalo, jamiyat taraqqiyoti moddiy resurslarga emas, balki inson kapitalining rivojlanishiga bevosita bog'liqligini anglatadi. Zamon shiddat bilan o'zgarayotgan davrda

davlat qudrati, xalq farovonligi va milliy taraqqiyotning eng asosiy manbai – bu tarbiyasi yaxshi, ilmi, chuqur fikrlay oladigan, yangilik yaratishga qodir insondir. Aql-zakovat va ilmning “eng katta boylik” sifatida talqin qilinishi – har bir yoshni o‘z bilimini oshirishga, izlanishga, intellektual salohiyatini doimiy rivojlantirishga undaydi. Chunki ilm bor joyda tafakkur bor, tafakkur bor joyda esa taraqqiyot yuz beradi. Bugun dunyo maydonida raqobat texnologiya, innovatsiya va ilmga asoslanayotgan bir paytda, ilmi avlodni tarbiyalash O‘zbekistonning ertangi kuniga qo‘yilayotgan eng katta sarmoya hisoblanadi.

Prezidentimizning “eng katta meros – yaxshi tarbiya” degan fikri esa oilada, maktabda va jamiyatda tarbiya masalasining ustuvor o‘rinda turishini yana bir bor tasdiqlaydi. Haqiqatan ham, insonda ilm bo‘lishi mumkin, ammo tarbiya bo‘lmasa, bu ilm jamiyatga foyda emas, balki zarar ham keltirishi mumkin. Yaxshi tarbiya esa insonda ezgulik, vatanparvarlik, halollik, adolatparvarlik, mas’uliyat va odob kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantiradi. Shuning uchun tarbiya – xalqning ma’naviy poydevori, millatning davomiyligini ta’minlovchi eng ulug‘ merosdir. Zero, tarbiya - bu ota-onalar, ta’lim muassasalari va jamiyat tomonidan bolalarni tarbiyalashning ongli va maqsadli jarayoni bo‘lib, u bolalarning yoshi, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish asosida amalga oshiriladi. Hozir biz texnologiya juda rivojlanayotgan davrda yashayapmiz. Mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar tufayli xalqimizning turmushi yaxshilandi, barcha sohalarda o‘zgarishlar va rivojlanishlar ko‘zga tashlanmoqda, ammo shunga rivojlanishga qaramay ba’zi o‘smirlar va yoshlarning ma’naviyati pastligi, ota-onalarning farzandlarining xulq-atvoriga befarqligi nazarga tushmoqda. Bu masalaning oldi olinmasa, savodsizlar safi ortishi mumkin. Bilimsizlik savodsizlikdan boshlanadi. Buning natijasida yangi fan shakllantirildi. Ushbu “Tarbiya” fanining metodologik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- ta’lim-tarbiyaga oid me’yoriy hujjatlar;
- tarbiya asoslari va manbalari;
- tarbiya qonuniyatlari, metodlari va texnologiyalari;
- tarbiyaning amaliy masalalari.

Mamlakatimizda milliy tarbiya konsepsiyasi aholining keng qatlamlari, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodning milliy ta’limtarbiyasini ta’minlash borasidagi davlatning bugungi siyosati va istiqbollari belgilab beradi. U yangi tarixiy bosqichda milliy tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifasi va mazmunini tartibga solib, uning komil inson shaxsini shakllantirishdagi roli va mavqeini belgilaydi.

Tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari

Tarbiya maqsadi – davlat, jamiyat va har bir fuqaro manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan maqsad va vazifalarining tarkibiy qismidir. Shuningdek, davlat inson hayoti va faoliyatiga, fuqarolarning milliy tarbiyasiga hissa qo'shadigan qoidalarni joriy qiladi. Tarbiya tushunchasiga turlicha qarash va yondashuvlar mavjud.

Ya.A. Komenskiy "Tarbiyaning maqsad va vazifalari, uning ahamiyati, amalga oshirish yo'llari shaxsning jamiyatdagi mavqeiga qarab belgilanishi kerak" va "Tarbiya insonni shakllantiradigan va takomillashtiruvchi uyg'un jarayondir" -deydi. Haqiqatdan ham Komenskiy tomonidan ilgari surilgan g'oyalar bugungi ta'lim jarayonida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Menimcha, bu fikr tarbiyaning shunchaki umumiy ko'rsatmalar yig'indisi emas, balki har bir insonning ijtimoiy hayotdagi o'rniga mos ravishda tashkil etilishi lozimligini anglatadi. Chunki odamzodning qiziqishlari, imkoniyatlari va jamiyat oldidagi mas'uliyati bir xil emas; demak, tarbiya jarayonida ham individual yondashuv, shaxsning ijtimoiy ehtiyoj va vazifalarini inobatga olish muhimdir.

Shuningdek, Komenskiyning "tarbiya insonni shakllantiradigan va takomillashtiruvchi uyg'un jarayon" degan ta'kidi tarbiyaning doimiy, tizimli va bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon ekanini anglatadi. Mening fikrimcha, tarbiyaning aynan "uyg'un jarayon" sifatida talqin qilinishi shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy va ma'naviy rivoji bir-biridan ajralmagan holda shakllanishini taqozo etadi. Insonning haqiqiy kamoloti aynan mana shu yo'nalishlar uyg'unlashgandagina yuzaga keladi. Shu bois tarbiya faqat bilim berishga emas, balki insonni yaxlit shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qilishi kerak.

Komenskiy ta'lim maqsadini quyidagi asosiy elementlarga ajratgan:

- insonga hamma narsani bilish – "ilmiy bilim";
- narsalarni va o'zini o'zlashtirish - "axloq";
- Xudoga sig'inish, ob'ektlar - "diniy ta'lim";
- jismoniy salomatlik - "jismoniy tarbiya" [3;11].

Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl nazariga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan,

«poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur. Zeroki, «Hassinu axloqiko'm» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg'a amr o'linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasitarbiyadur.

Axloqimizning binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur, ba'zilar «tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar, shunday o'sarlar, tabiat o'zgarmas», - demishlar. tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go'zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan. [2; 8,10]

Hatto bu kitobda farzandga tarbiyani kimlar beradi? Onami? otami? yoki ustozmi kabi savollarga javoblar keltirilgan. Haqiqatdan ham farzand tarbiyasi juda murakkab, mashaqqatli va uzluksiz jarayondir. Uni tarbiyasi va bilim saviyasi yetuk inson berishligi ta'kidlangan. Har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash, yomonlikdan qaytarib, yaxshilikka chorlash bevosita tarbiya bilan bog'liqdir. Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirish bolalar, o'smirlar, yoshlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi natijasida:

1) tarbiya ijtimoiylashuv obbekti bo'lmish inson qay darajada g'ayriijtimoiy qadriyatlarni emas, balki ijobiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishini aniqlaydi;

2) tarbiya inson o'zini ijtimoiylashuv sub'ekti sifatida his qilishi, sub'ektivligining namoyon qilishi va taraqqiy etishi uchun sharoit yaratadi;

3) tarbiya inson uchun jamiyatga moslashuv darajasini ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi;

4) tarbiya insonni muayyan yosh bosqichlarida xavflar bilan to'qnash kelishiga yo'l qo'ymasligi yoki insonning ijtimoiylashuv qurboniga aylanishi ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyini amalga oshirish tarbiyalanuvchida refleksiya va o'z-o'zini tartibga solishni rivojlantirishga, uning tashqi olam bilan munosabatlarini shakllanishiga, g'urur hissini oshishiga, jamiyatda demokratik va gumanistik munosabatlarni tashuvchan bo'lgan insonning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [4;86].

Tarbiyaning umumiy vazifalari:

- jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;

-jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi «inson kapitali»ni tayyorlash;

-madaniyatlamini uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;

-ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarining qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.[5;126]

Xulosa qilib aytganda, mazkur fikrlar yoshlar ongiga ilmga chanqoqlik, tarbiyaga e’tibor, ma’naviy o‘zlikni yuksaltirish, hayotga mas’uliyat bilan qarash ruhini singdiradi. Komenskiy ilgari surgan tarbiya haqidagi qarashlar bugungi ta’lim jarayonida ham o‘zining dolzarbligini saqlab kelmoqda. Uning tarbiya maqsadi shaxsning jamiyatdagi mavqeiga mos ravishda belgilanishi kerakligi haqidagi fikri tarbiyaning individual yondashuvga asoslanishi zarurligini ko‘rsatadi. Men tarbiyani insonni komillikka yetaklovchi, uning hayotga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi, kelajak poydevorini yaratuvchi eng ta’sirchan jarayon deb bilaman. Shuningdek, tarbiya faqat oilaning yoki maktabning vazifasi emas, balki jamiyatning har bir a’zosiga taalluqlidir. Chunki bola yoki yoshning ruhiy va axloqiy kamoloti uning atrofidagi muhitga bevosita bog‘liq. Tarbiya qanday bo‘lsa, kelajak avlod ham shunday bo‘ladi. Shu bois tarbiya jarayoni ongli, tizimli va maqsadli tashkil etilishi zarur. Zero, har bir insonning ehtiyojlari, imkoniyatlari, qobiliyatlari va ijtimoiy vazifalari turlicha bo‘lgani uchun tarbiya jarayoni ham shaxsga moslashtirilgan, maqsadli va izchil bo‘lishi lozim. Zero, ilm va tarbiya uyg‘unligi – har bir davlatning kuchi, millatning istiqboli, jamiyatning haqiqiy boyligi hisoblanadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T., “O‘zbekiston” nashriyoti-2021. B. 24
2. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yohud axloq asari. Yoshlar nashriyot uyi. T., 2018.B.8-10
3. Saidnazarova G. B Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi o‘quv qo‘llanma “KAMOLOT” nashriyoti Buxoro-2024
4. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.T., 2009.B.86
5. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, B.126
6. Xakimova, S. S. Q. (2023). Talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalalari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 785-790.
7. Khakimova S. S., and Turdaliyev H. M. O'gli. "Factors Affecting the Child's Development in Society." World Bulletin of Social Sciences, vol. 32, 13 Mar. 2024, pp. 45-47.